



**MAKTABGACHA TA'LIMDA MASHG'ULOTLAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10896118>

Urinbayeva Barchinoy

Andijon shaxar 42 davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Kirish. Bola hayotida maktabgacha ta'lim davri muhim o'rin tutadi. Shu bois maktabgacha ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Bunda esa pedagogdan ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv talab etiladi. Hozirgi kunda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanilmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida innovatsion pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida maktabgacha ta'lim davri muhim o'rin tutadi. Shu bois maktabgacha ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehnini o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bolalarni maktabga tayyorlashda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'im jarayonida qo'lanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'im jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'im jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari



ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Tahlil va metodologiya. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan „Ilk qadam “ davlat dasturi va “Davlat standartlari” har bir yosh guruhi uchun belgilangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya mashg'ulotlar mazmuni belgilab berilgan. Jismoniy tarbiyada xilma-xil mashg'ulotlarni o'tkazishda tarbiyachi yoki jismoniy tarbiya yo'riqchisi vazifalarni: aniq- ravshan bilishi, mashg'ulotni olib borishda izchillikka rioya qilishi, shuningdek bolalar yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish shartdir. Mashg'ulot vaqtida bola organizmining dinamikasi va uning psixologiyasini nazorat qilish va e'tiborli bo'lish tarbiyachining asosiy vazifalaridan biridir. Tarbiyachi yoki jismoniy tarbiya yo'riqchisi qanchalik mashg'ulot davomida faol bo'lib, bolalarga e'tiborli bo'lsa, jismoniy tarbiya mashg'ulotidagi ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligi shunchalik darajada ko'tarilib boradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “ Maktabgacha ta'lim” tashkilotarida jismoniy tarbiya mashg'ulotini tashkil etish va olib borish, “Ilk qadam “ davlat dasturi asosida o'tkaziladi. Tarbiyachi yoki jismoniy tarbiya yo'riqchisi olib boradigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalarning jismoniy pisixik darajasiga qarab olib boriladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida bolalarda harakat ko'nikmalarining rivojlanishi bilan bir vaqda tezkorlik, chaqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlar tarbiyalanadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari belgilanadigan o'quv ishi rejasiga muvofiq rejalashtiriladi, bunda birinchi navbatda bir xil mashg'ulotlarda asosiy e'tibor bolalarni yangi jismoniy mashqlarni avval o'rganganlari bilan muvofiqlashtirilgan holda birga o'rgatishga; ikkinchidan mashg'ulotlardagi harakat materiallarining bolalar tomonidan o'zlashtirish darajasi, bajarilish sifati va miqdoriy natijasi vaqti- vaqti bilan tekshirib turishga; uchinchidan mashg'ulotlarda bolalarga tanish mashqlar takomillashtirish maqsadida variantlardan foydalangan holda tez -tez takrorlashkabilarni kirgizish mumkin. Jismoniy tarbiya mashg'uloti har doim izchillikda, ketma -ket tashkil etilsa kutilgan natijaga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Xo'jaev F, Raximqulov K.D., Nig'manov B.B “Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi” TDPU nashriyoti, Toshkent. 2008.
2. „Ilk qadam“ davlat dasturi. Toshkent. 2018.